

ABDULLA AVLONIYNING ASARLARIDA TARBIYA MASALASI

*Porsiyeva Zamira Muxtorovna
Qarshi Davlat universiteti*

Annotatsiya. maqolada Avloniyning darsliklaridagi ta'lim-tarbiya masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: yomonlik jazosi, qanoat, yaxshilik kuchi, ittifoqchilik.

KIRISH

"Birinchi muallim" asari Avloniyning pedagogik asarlari qatoriga kiradi. Maktab o‘yquvchilari uchun yangi qo‘llanma tarzida yaratilgan. Asarda birqancha hikoyatlar keltirilgan bo‘lib, hikoyatlar g‘oyasi o‘quvchilardagi axloqiy sifatlarning mukammal shakllanishida o‘rin tuta oladi. Bu esa ulardan qay yo‘sinda xulosa chiqara olishga bog‘liq. Asarning kirish qismida -- aynan kirish deya keltirilmagan, ammo asarni yozishdan maqsad ifodalangani uchun shunday atadik -- asar nima sababdan yozilgani, kimlar uchun mo‘ljallangani haqida bayon etilgan: "Shoyad millat bolalarina foidabaxsh o‘lur umidinda bir necha muallimlarimizning iltijolari ila ko‘b vaqt tajriba so‘ngidan bu risolayı ojizonamni "Birinchi muallim" ismi-la maydoni intishora qo‘ydim". Asar mana shu sabab dunyoga kelgan. Adib undagi qusur va kamchiliklar uchun uzr xam so‘raydi. Bu tanbehlarni to‘g‘ri qabul qilajagini ta’kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

"Yomonliq jazosi" hikoyasida Qosim ismli bebosh bolaning yolg‘onchilik oqibatida o‘zi sabab olgan jazosi haqida hikoya qilinadi. Ota-onasining tanbehlarini quloqqa ilmasdan hamisha yolg‘on gapiruvchi Qosim bolalarga o‘rnak bo‘lishi lozim. Yolg‘onchilik hech zamonda yoqlanmaydi. Bu eng katta gunohlardan biri. Bir marta aytilgan yolg‘on qolgan yolg‘onlarning boshlanishiga zamin yaratadi. Qosim ham mehmon uchun tayyorlab qo‘ylgan taomlarni yeya turib, yemadim deb turib olishi; otasi stol ustiga qo‘ygan tangani ola turib olmadim deyishi oqibatida jon berdi. Tangani olgan zahoti og‘ziga yutib, men olmadim deya yolg‘on so‘zlashi sabab tanga tomog‘iga tiquilib vafot etadi. Qing‘ir ishning qiyig‘i qirq yilda xam chiqadi. Yolg‘onlar abadiy emasligini anglab yetmagan Qosim o‘ziga to‘g‘ri xulosa chiqargandir, ammo endi kech. So‘nggi pushaymon o‘zingga dushman. U qayta so‘zlolmaydigan jazoga hukm etildi. Qosimning ota- onasining aytganini qilmasdan o‘zbilarmonlik bilan qilgan harakatlariga yolg‘on so‘zlashi nuqta qo‘ydi. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq asari"da yolg‘on so‘zni kizb, uni so‘zlaydiganlarni esa kazzob deb ataydi. Asarda shuningdek, Payg‘arbarimiz so‘zlaridan va Qur’oni karimdan ibratli misollar keltiriladi. Payg‘ambarimiz : "Alkazzobu lo ummati" -- "yolg‘onchi mening

ummatimdan emasdur", -- demishlar. Qur'oni karimda: "Kizbni imoni yo'q kishilar so'ylarlar",-- demishlar.

"Qanoat" hikoyasida esa bir kishining Ali hamda Vali ismli o'g'illari orqali qanoatli va qanoatsiz odamning nasibasida ham yer bilan osmonchalik farq borligi ochib berilgan. Nafaqat nasibasida oilada, jamiyatda tutgano'rniда ham farq bo'lishi tasvirlangan. Qanoatli farzand Alining otasi olib kelgan olmadan faqatgina bitta -- o'z ulashini olgani, qanoatsiz farzand Valining ochko'zligi sabab o'z ulushidan xam bebahra qolganiligi bolalarga xamisha o'zi nasibasiga egalik qilish lozimligini o'zganikiga ko'z tiksa, o'zinikidan ham mahrum bo'lishi aniq ekanligini o'rgatadi. Bu yerda yana bir masala haqida fikr yuritish darkor: oilada nechta farzand bo'lsa, har biri ota- onasining o'gitlaridan ayricha xulosa chiqaradi. Ushbu hikoya bolalargaqanoatli bo'lish bilan xar yerda xam ulushga ega bo'lish mumkinligi haqida saboq beradi. Qanoatli kishining ishida xam unum bo'ladi, sababi u Allah tomonidan berilgan xursandchilikka ham, g'am-g'ussaga ham qanoat hamda sabr qiladi. Sabrning tagi sariq oltin. Uning mevasi shirin bo'ladi. Buning uchun esaqanoatni barcha yaxshi sifatlarning boshida turuvchisi deb qabul qilmoq va unga amal qilmoq darkor. Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida qanoatga shunday ta'rif beradi: "Qanoat bir xazinadurki, naqdinasi kundan kun ortar. Bu xazinaga yega bo'lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar". Xazinadek qiymatga ega bo'lgan qanoat bizga Qodir tomonidan tuhfa etilgan. Faqatgina uni o'zimizda shakllantira olishimiz kerak. Buning uchun, avvalo, inson bolalikdan to'g'ri tarbiya topmog'i darkor.

Navbatdagi hikoya ezgulik haqidagi "Yaxshilik yerda qolmas" hikoyasidir. Hikoyada asosiy qahramonlar Ari hamda Kabutar sanaladi. Voqealar rivoji ularning o'zaro qilgan yaxshiliklaridan rivoyat qiladi. Hikoyada aytishicha, suv yuzida suzib ketayotgan ari behosdan suvgaga qulvydi. Kabutar buni ko'rib yordamga oshiqadi. Ariga bir cho'pni irg'itadi. Ari shu cho'p sabab omon qoladi. Ma'lum vaqt o'tgach kabutarga bir bolakay tuzoq qo'yadi. Kabutar tuzoqqa ilinadi. Buni ko'rgan ari bolaning qulog'ini chaqib oladi. Kabutar esa tuzoqdan qochib qutuladi. Hikoya mazmuninidan ko'rinish turganidek, kimgadir yaxshilik qilishda ikkilanmaslik lozim. Qilgan yaxshilingiz o'sha insondan qaytmasa, boshqadan qaytadi. Qilgan ezgu amallar martabamizni bu dunyoda ham, u dunyoda ham oshiradi.

Yaxshilik qilish bilan kishi nomiga savob yoziladi. Shuning uchun yaxshilik qilayotganda bu yaxshiligidan o'zim uchundir, deb qilish oqil kishining ishidir. Yaxshilik qilsang, bo'lur joning omon, Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.

"Ittifoq" hikoya isida zamon va makon tanlamas ittifoq xaqida xikoya qilinadi. Hikoyaga asos qilib, chumolilar hayoti olingan. Eng mayda xasharotlardan bo'lmish chumolilar o'rtasida ittifoq juda mustahkam o'rnatilardi. Tabiatan kuzatilsa xam xar bir chumolining o'z vazifasi bo'ladi va ular buni juda yaxshi anglashadi. Agar iniga

suv kirib ketsa, dastlab qirolichasi va tuzumlarini indan OLIB chiqadilar. Chetdan hujum qilinsa xam ular birgalikda harakat qiladilar. Har qanday to'siqni ham yengib o'ta oladilar. Ittifoq oilada ham, jamiyatda ham, davlatlar o'rtasida xam, ikki do'st orasida ham bo'lishi kerak. Bir hikoyada aytildi. Otaning uch o'g'li bo'lib, ular bir-biri bilan kelishmas, noahil ekan. Shunda ota bir bog' cho'pni olibdi-da, ularni bitta-bitta sindira boshlabdi. Cho'plar oson sinibdi. Hammasini birgalikda sindirgan ekan. Kuchi yetmabdi. Shunda o'g'illar otasi nima demoqchi ekanligini tushunibdilar va bundan keyin ahil yashashga kelishibdilar. Davlatlar kesimida oladigan bo'lsak, qadimdan o'zaro tinch bo'lman davlatni bosib olish oson bo'lgan. Bunga isbot sifatida "Abulfayzxon" dramasida Nodirshohning gaplarini keltirsak bo'ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ko'rinish turganidek, asarda kichik-kichik hikoyalar orqali bola tarbiyasi uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar, ularni e兹gulikka, to'g'rilikka undovchi fikrlar, ularning hayoti davomida asqatadigan maslahatlar berib o'tilgan. Hajm jihatidan kichik bo'lgan ushbu hikoyalarni yodda saqlash osonligi bilan ham ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.B.Qosimov Abdulla Avloniy, Zabarjad media, 2022.
2. www.ziyonet.uz